

BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMBINATORIKA ELEMENTLARINI QO'LLASH

*Navoiy shahar 3-sonli FFCHO'ITM boshlang'ich (rus) sinf o'qituvchisi
Jumabaeva Muqaddas Iminbayevna*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kombinatorika masalalari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Boshlang`ich sinf matematika darsligida keltirilgan masalalar va ularni yechish metodikasi ko`rsatilgan.

Kalit so'zlar: Kombinatorika masalasi , kombinatsiyalari , B.Paskal, P.Ferma, G.Leybnis, Y.Bernulli, L.Eyler .

Kombinatorika masalasi. Elementlarning turli kombinatsiyalari va ularning sonini topish bilan bog`liq masalalar kombinatorika masalalari deyiladi. Bunday masalalar matematika fanining tarmog`i — kombinatorikada o`rganiladi. Kombinatorika asosan, XVII—XIX asrlarda mustaqil fan sifatida yuzaga kelgan bo`lib, uning rivojiga B.Paskal, P.Ferma, G.Leybnis, Y.Bernulli, L.Eyler kabi olimlar katta hissa qo`shganlar. Kombinatorikada, asosan, chekli to`plamlar, ularning qism to`plamlari, chekli to`plam elementlaridan tuzilgan kortejlar va ularning sonini toppish masalalari o`rganilgani uchun uni to`plamlar nazariyasining bir qismi sifatida qarash mumkin. Boshlang`ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yonalishi talabalariga —Boshlang`ich matematika kursi nazariyasi』 fanidan kambinatorika masalalari bo`yicha ma`ruzalar o`qimiz va amaliy mashg`ulotlarida olgan bilimlarini mustaxkamlaymiz. Shu boyis ularni ertangi kun boshlang`ich sinf o'qituvchilariga kerak bo`lgan bilmlarni beramiz. Bu yerda olgan nazariy bilimlarini ertaga muktabda amalda foydalanadi. Quiyda 3 sinf «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019 yil nashir etilgan —Matematika darsligida keltirilgan kombinatorika, mantiqiy masalalarga doir topshiriqlar berilgan .Kombinatorik va mantiqiy masalalar

1. Kombinatorik masalalarda berilgan topshiriqni nechta usulda bajarish mumkinligi aniqlanadi. Masalan: 9, 0, 4 raqamlari berilgan. Bu raqamlardan foydalanib nechta uch xonali son hosil qilish mumkin? Namuna: 409; 490; ...

2. Sinfda to`rtta o`quvchi bir-biri bilan qo`l berib ko`rishmoqda. Ko`rishishlar soni nechta bo`ladi? Javobingizni tajribada tekshirib ko`ring.

3. Bo`rining inidan tulkingin iniga 3 ta, tulkingin inidan ayiqning iniga 2 ta yo`l bor. Bo`ri mehmonga borish uchun tulki inidan o`tib, ayiqnikiga nechta yo`l orqali bora oladi? Chizma chizib ko`rsating.

4. Qizil, sariq va oq gullar yonma-yon ochilib turibdi. Asalari har bir gulga faqat bir marta qo`nishi mumkin. U hamma gullarni necha usulda aylanib chiqa oladi?

5. Katakcha o`rniga qaysi raqamni qo`yish mumkin? Javob variantlari nechta?

a) $2 \cdot () = 1$ b) $4 \cdot () = 3$

c) $6 \cdot (\) = 4$ d) $7 \cdot (\) = 4$

6. To`rtburchak chizing. Uning burchaklarini A, B, D, E harflar yordamida belgilang. To`rtburchakdagi harflarni shunday ketma-ketlikda yana necha usulda belgilash mumkin? Har bir usulni chizmada ko`rsating.

Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilari bu berilgan topshiriqlarni yechibgina qoymay, o`quvchilarga yechish metodikasini tushuntirish kerak. Bunday masala va topshiriqlar o`quvchilarni mantiqiy fikrashga o`rgatadi. Boshlang`ich sinflarda kabinatorikaga tegishli bo`lgan masalalarni amaliy tarzda yechib ko`rsatiladi. Masalan quyidagicha amaliy tarzda yechib ko`rsatishimiz mumkin. 4-masala.



- 1) oq, sariq, qizil 4) sariq, oq, qizil
2) oq, qizil, sariq 5) qizil, sariq, oq
3) sariq, qizil, oq 6) qizil, oq, sariq
5-masala.

- a) $2 \cdot 5 = 10$ b) $2 \cdot 6 = 12$ c) $2 \cdot 7 = 14$ d) $2 \cdot 8 = 16$ e) $2 \cdot 9 = 18$
f) $4 \cdot 8 = 32$ g) $4 \cdot 9 = 36$
h) $6 \cdot 7 = 42$ i) $6 \cdot 8 = 48$
j) $7 \cdot 6 = 42$ k) $7 \cdot 7 = 49$

6-masala.

- 1) ABCD 4) ACDB
2) ABDC 5) ADBC
A D 3) ACBD 6) ADCB



Biz A harfidan boshlanadigan 6 usulni keltirdik. Shunga uxshash B harfidan boshlanadigan 6 usul, C harfidan boshlanadigan 6 usul, D harfidan boshlanadigan 6 usulda belgilash mumkin. Jami 24 usul bilan belgilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo_latova M.I. Boshlang`ich matematika kursi nazariyasi. Pedagogika oliy ta`lim muassalari uchun
2. S.Burxonov, O._Xudoyorov, Q.Norqulova, N. Ruzikulova, L.Goibova —Matematika Umumiy o_rta ta`lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi